NATIONAL QUALITY ASSURANCE AGENCY FOR EDUCATION

NQAAE

UNDER THE ADMINISTRATION OF THE PRESIDENT OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI

TA’LIM SIFATINI TA’MINLASH MILLIY AGENTLIGI

TA’LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O‘TKAZISH BO‘YICHA

YAKUNIY HISOBOT

MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

Davlat oliy ta’lim tashkiloti

70540201 – Amaliy matematika

Magistratura

www.nqaae.uz

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI TA’LIM SIFATINI TA’MINLASH MILLIY AGENTLIGI

70540201 – Amaliy matematika

TA’LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O‘TKAZISH BO‘YICHA YAKUNIY HISOBOT

MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

(Ekspert komissiyasi xulosasi asosida)

EKSPERT KOMISSIYASI TARKIBI

	**Rais: MAMAYUSUPOV XUDOYOR SULTONTOSH O‘G‘LI** **“Yangi O‘zbekiston” universiteti** **falsafa doktori (PhD)**
	**A’zo: ANNA TOZZI** **University of L’Aquila (Italiya)** **falsafa doktori (PhD), professor**

1. UMUMIY MA’LUMOTLAR

Ariza raqami	MAO260112
Xulosa raqami	1429
Xulosa sanasi	07.07.2026
Ta’lim tashkilotining to‘liq nomi	“MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI” DAVLAT MUASSASASI
Tashkilot manzili, litsenziya / identifikatsiya ma’lumotlari	Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Amir Temur Shox ko‘chasi, 108-uy. Litsenziya: № 10-000825, 20.01.2003. Guvohnoma: MAS № 0000485, 07.08.2026.
Baholangan ta’lim dasturi nomi	Amaliy matematika
Yo‘nalish / mutaxassislik kodi	70540201
Akkreditatsiya usuli	masofaviy / joyiga chiqib

2. HUQUQIY ASOSLAR

Xulosa tayyorlanishiga asos bo‘lgan normativ-huquqiy hujjat:

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta’limdan keyingi ta’lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o‘tkazish tizimini joriy etish to‘g‘risida” 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “O‘rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta’limdan keyingi ta’lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom.

Maxsus davlat akkreditatsiyasi:

O‘rta maxsus, kasbiy, oliy ta’limni va oliy ta’limdan keyingi ta’limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta’lim tashkilotlarida ta’lim dasturlari bo‘yicha o‘quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon.

3. TA’LIM DASTURINING UMUMIY TAVSIFI

1. Ta’lim tashkilotining litsenziya/guvohnomasi: *License/Certificate of Educational Institution:*	№ 10-000825, 20.01.2003
2. Ta’lim tashkilotining turi: *Type of Educational Institution:*	Davlat oliy ta’lim tashkiloti
3. Ta’lim dasturi kodi va nomi: *Code and Name of Study Programme:*	70540201 – Amaliy matematika
4. Ta’lim dasturining ingliz tilida nomlanishi: *Name of Study Programme in English:*	70540201 – Applied Mathematics
5. Ta’lim dasturining rus tilida nomlanishi: *Name of Study Programme in Russian:*	70540201 – Прикладная математика
6. Hamkorlikda amalga oshirilishi: *Offered in Cooperation with:*	—
7. Ta’lim tili: *Medium of Instruction:*	o‘zbek / rus
8. Ta’lim shakli: *Mode of Study:*	kunduzgi
9. Ta’lim dasturi hajmi: *Study Programme Credits:*	120 kredit
10. Ta’lim dasturi davomiyligi: *Duration of Study Programme:*	2 yil
11. Milliy malaka ramkasidagi darajasi: *Level in National Qualifications Framework:*	7-daraja
12. Kvalifikatsiya(lar) nomi: *Qualification Title:*	Amaliy matematik, pedagog-tadqiqotchi
13. Qo‘shimcha beriladigan kvalifikatsiyalar: *Additional Qualifications Awarded:*	—
14. Ta’lim dasturi yakunida beriladigan hujjat turi: *Type of Document Issued Upon Completion:*	Davlat namunasidagi diplom
15. Ta’lim oluvchilarning me’yoriy miqdori (to‘liq davr): *Maximum Number of Students (full period):*	16 nafar
16. Ta’lim dasturini o‘qitish manzili: *Address Where the Study Programme is Delivered:*	Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Amir Temur Shox ko‘chasi, 108-uy

4. BAHOLASH YO‘NALISHLARI VA MEZONLAR BO‘YICHA NATIJALAR

Har bir yo‘nalish bo‘yicha baho (muvofiq / muvofiq emas) va har bir mezon bo‘yicha baho (muvofiq / qisman muvofiq / muvofiq emas) deb baholanadi.

№	Baholash yo‘nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
1.	**Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta’minlash**	**Muvofiq**
1.1.	*ta’lim dasturini amalga oshirish bo‘yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi;**	Muvofiq
1.2.	*ta’lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta’minlash bo‘yicha 5 yillik istiqbolli rejaning mavjudligi;*	Muvofiq
1.3.	*ta’lim dasturi doirasida sifatni ichki ta’minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta’minlangani;*	Muvofiq
1.4.	*mehnat bozori va ta’lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so‘nggi tendensiyalarini aniqlash bo‘yicha monitoring tizimining mavjudligi;*	Muvofiq
2.	**Ta’lim dasturlari**	**Muvofiq**
2.1.	*manfaatdor tomonlar ishtirokida ta’lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta’lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta’lim standarti va milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi;**	Muvofiq
2.2.	*ta’lim dasturining milliy ta’lim tizimidagi ustuvor yo‘nalishlar va xalqaro andozalar asosida ishlab chiqilgani;*	Muvofiq
2.3.	*ta’lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta’minlangani;*	Muvofiq
3.	**O‘quv jarayonini tashkil etish va o‘quv natijalarini baholash**	**Muvofiq**
3.1.	*ishchi o‘quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani;**	Muvofiq
3.2.	*o‘quv jarayonining ta’lim dasturida belgilangan o‘quv natijalariga erishishga yo‘naltirilgani;**	Muvofiq
3.3.	*o‘quv jarayonining doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani;*	Muvofiq
3.5.	*ta’lim dasturi doirasida talabalar bilimining shaffof va xolis baholanishi, baholash jarayonlarining o‘quv natijalariga muvofiqligi;*	Muvofiq
3.6.	*talabalarning baholash natijalari bo‘yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi;*	Muvofiq
3.7.	*ta’lim dasturida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo‘yicha samarali tizimning mavjudligi;**	Muvofiq

№	Baholash yo‘nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
4.	**Talabalar faoliyati**	**Muvofiq**
4.1.	*ta’lim dasturi bo‘yicha qabul talablari aniq belgilangani, o‘qishga qabul qilish shaffof tarzda yo‘lga qo‘yilgani;*	Muvofiq
4.2.	*qabul parametrlarining ta’lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi;**	Muvofiq
4.3.	*talabalarning o‘qishini ko‘chirish, kursdan-kursga o‘tkazish (qoldirish), o‘qishdan chetlashtirish va o‘qishini qayta tiklash tartibining belgilangani;**	Muvofiq
4.4.	*talabalarni qo‘llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi;*	Muvofiq
5.	**Inson resurslari**	**Muvofiq**
5.1.	*ta’lim dasturi uchun belgilangan me’yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv, texnik, xizmat ko‘rsatuvchi va o‘quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi;**	Muvofiq
5.3.	*yangi ta’lim dasturlari bo‘yicha o‘quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta’minlash bo‘yicha aniq rejaning mavjudligi;**	Muvofiq
5.4.	*kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish tizimining mavjudligi;*	Muvofiq
6.	**Moddiy-texnik ta’minot**	**Muvofiq**
6.1.	*ta’lim dasturini amalga oshirish uchun amaliy, laboratoriya mashg‘ulotlari va kurs ishi (loyiha)ni bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qo‘llanma (ko‘rsatma)lar bilan ta’minlangani;**	Muvofiq
6.2.	*fanlar kesimida o‘quv va o‘quv-metodik adabiyotlar, elektron ta’lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta’minlangani;**	Muvofiq
6.3.	*o‘quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning talabalar sonidan kelib chiqib, ta’lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta’minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani;**	Muvofiq
6.4.	*inklyuziv ta’lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o‘quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;*	Muvofiq
6.5.	*axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta’lim dasturlariga mos o‘quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta’minlangani, o‘quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;**	Muvofiq

№	Baholash yo‘nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
6.6.	*raqamli ta’lim muhiti yaratilgani (LMS, wi-fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta’lim imkoniyatlari);*	Muvofiq
6.7.	*ta’lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi.*	Muvofiq

5. BAHOLASH YO‘NALISHLARI (BOB) BO‘YICHA XULOSALAR

1-bob. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta’minlash yo‘nalishi

70540201 – “Amaliy matematika” magistratura mutaxassisligini tashkil etish va samarali amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan boshqaruv tizimi, mas’uliyat taqsimoti hamda ichki sifat nazorati mexanizmlari shakllantirilgan. Ta’lim dasturining maqsad va vazifalari universitetning strategik rivojlanish yo‘nalishlari bilan uyg‘unlashtirilgan. Kafedra faoliyati, boshqaruv jarayonlari va ichki sifatni ta’minlash tartiblari dasturning barqaror rivojlanishi hamda belgilangan ta’lim natijalariga erishishga yo‘naltirilgan. Dastur faoliyatini muntazam monitoring qilish, erishilgan natijalarni tahlil etish va mavjud jarayonlarni qayta ko‘rib chiqish mexanizmlari yo‘lga qo‘yilgan. Mazkur mexanizmlar orqali boshqaruv qarorlarining asoslanganligi, ta’lim jarayonining izchilligi va sifatni doimiy takomillashtirish imkoniyatlari ta’minlangan. Umuman olganda, ushbu bob doirasida belgilangan talablarning bajarilishi ta’minlangan va ta’lim dasturi tegishli mezonlarga muvofiq deb baholandi.

2-bob. Ta’lim dasturlari yo‘nalishi

Ta’lim dasturi mamlakatning raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, matematik modellashtirish, algoritmlash va ma’lumotlar tahlili sohalarida yuqori malakali mutaxassislarga bo‘lgan dolzarb ehtiyojlarini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan. Dasturning maqsadlari, kutilayotgan ta’lim natijalari va shakllantirilishi belgilangan kompetensiyalar o‘zaro uzviy bog‘langan hamda magistrantlarni ilmiy-tadqiqot, pedagogik va amaliy kasbiy faoliyatga tayyorlashga yo‘naltirilgan. O‘quv rejasiga kiritilgan fanlar tarkibi, ularning mazmuni va o‘zaro izchilligi mutaxassislikning ilmiy-nazariy hamda amaliy xususiyatlariga muvofiq shakllantirilgan. Matematik modellashtirish, algoritmik yondashuvlar va ma’lumotlarni tahlil qilish usullarining o‘zaro integratsiyasi orqali magistrantlarda murakkab masalalarni ilmiy asosda tahlil qilish, matematik modellar ishlab chiqish va olingan natijalarni amaliy faoliyatda qo‘llash kompetensiyalarini rivojlantirish nazarda tutilgan. Ilmiy amaliyotning

mazmuni va tashkil etilishi magistrantlarning nazariy bilimlarini mustahkamlash, mustaqil tadqiqot olib borish hamda kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladigan tarzda belgilangan. Umuman olganda, ta’lim dasturining mazmuni, tarkibiy tuzilishi va kutilayotgan natijalari belgilangan talablar hamda mutaxassislikning kasbiy yo‘nalishlariga muvofiq deb baholandi.

3-bob. O‘quv jarayonini tashkil etish va o‘quv natijalarini baholash yo‘nalishi

Ta’lim jarayoni tizimli, bosqichma-bosqich va kutilayotgan natijalarga yo‘naltirilgan holda rejalashtirilgan hamda uning tashkiliy va uslubiy asoslari belgilangan talablar asosida shakllantirilgan. O‘quv reja, fan dasturlari, baholash mezonlari va amaliyot jarayonlari ta’lim dasturining maqsadlari hamda magistrantlarda shakllantirilishi nazarda tutilgan kompetensiyalar bilan o‘zaro uyg‘unlashtirilgan. O‘quv mashg‘ulotlarining izchil tashkil etilishi, nazariy bilimlarning amaliy faoliyat bilan bog‘lanishi va magistrantlarning mustaqil ta’lim olish imkoniyatlari ta’lim jarayonining muhim tarkibiy qismlari sifatida belgilangan. Bilim va ko‘nikmalarni baholash tizimida shaffoflik, xolislik va adolat tamoyillariga rioya etilishi ta’minlangan hamda o‘zlashtirish natijalarini aniqlash uchun tegishli mezonlar ishlab chiqilgan. Magistrantlarning ta’lim jarayoni yuzasidan fikr-mulohazalarini olish, murojaat va shikoyatlarini ko‘rib chiqish mexanizmlari belgilangan bo‘lib, ular orqali ta’lim sifatini muntazam takomillashtirish imkoniyatlari yaratilgan. O‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini monitoring qilish va natijalarni tahlil etish jarayonlari magistrantlarning ilmiy tayyorgarlik darajasini baholash, mavjud kamchiliklarni aniqlash hamda o‘quv jarayoniga zarur tuzatishlar kiritishga yo‘naltirilgan. Umuman olganda, ta’lim jarayonining rejalashtirilishi, tashkil etilishi, baholash tizimi va sifatni nazorat qilish mexanizmlari belgilangan mezonlarga muvofiq deb baholandi.

4-bob. Talabalar faoliyati yo‘nalishi

Magistrantlarni o‘qishga qabul qilish, talabalar harakatini tartibga solish, akademik maslahat berish va kasbiy qo‘llab-quvvatlash jarayonlari amaldagi qonunchilik talablari hamda universitetning ichki me’yoriy hujjatlariga muvofiq tashkil etilgan. Qabul jarayonida belgilangan mezonlar, ajratilgan kvotalar va tanlov natijalari yuzasidan axborot taqdim etish tartiblari shaffoflik, ochiqlik va teng imkoniyatlar tamoyillari asosida shakllantirilgan. Magistrantlarning murojaatlari va shikoyatlarini ko‘rib chiqish mexanizmlari belgilangan bo‘lib, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish hamda yuzaga keladigan masalalarni o‘z vaqtida hal etish uchun tegishli tashkiliy sharoitlar yaratilgan. Akademik maslahat va ilmiy rahbarlik tizimi

orqali magistrantlarning ta’lim jarayoniga moslashuvi, individual o‘quv faoliyatini rejalashtirishi va ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb etilishi qo‘llab-quvvatlangan. Karyera markazi faoliyati, amaliyot bazalari va ish beruvchi tashkilotlar bilan yo‘lga qo‘yilgan hamkorlik aloqalari magistrantlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, amaliy tajriba orttirish va mehnat bozori talablariga moslashish imkoniyatlarini kengaytirishga yo‘naltirilgan. Magistrantlarni akademik va ilmiy muhitga integratsiya qilish, ularning kasbiy rivojlanishini rag‘batlantirish hamda ta’lim davomida zarur maslahat va ko‘mak bilan ta’minlash uchun tegishli mexanizmlar shakllantirilgan. Umuman olganda, magistrantlarni qabul qilish, akademik faoliyatini tashkil etish va har tomonlama qo‘llab-quvvatlash tizimi belgilangan talablar va sifat mezonlariga muvofiq deb baholandi.

5-bob. Inson resurslari yo‘nalishi

“Algoritmlash va matematik modellashtirish” kafedrasida mutaxassislik fanlarini o‘qitish, ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish va magistrantlarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish uchun zarur bo‘lgan professor-o‘qituvchilar tarkibi shakllantirilgan. Kafedrada tegishli mutaxassislik yo‘nalishlari bo‘yicha ilmiy darajaga ega pedagoglar, ko‘p yillik o‘qituvchilik tajribasiga ega professor-o‘qituvchilar hamda amaliy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislarning mavjudligi ta’lim jarayonining ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan ta’minlanishiga xizmat qiladi. Professor-o‘qituvchilarga bo‘lgan ehtiyojni muntazam tahlil qilish, mavjud kadrlar salohiyatini baholash va yangi mutaxassislarni jalb etish mexanizmlari yo‘lga qo‘yilgan. Pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, malakasini oshirish, ilmiy-tadqiqot faoliyatini rag‘batlantirish va zamonaviy o‘qitish usullarini ta’lim jarayoniga joriy etish uchun tegishli tashkiliy sharoitlar yaratilgan. Yosh pedagog kadrlarni doktorantura bosqichida tahsil olishga yo‘naltirish, ularning ilmiy salohiyatini oshirish hamda xorijiy oliy ta’lim muassasalari va ilmiy tashkilotlardan malakali mutaxassislarni jalb etish bo‘yicha istiqbolli rejalar belgilangan. Matematik modellashtirish, algoritmlash va amaliy matematikaning zamonaviy yo‘nalishlari bo‘yicha ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish orqali kafedraning ilmiy salohiyatini mustahkamlash hamda magistrantlarni ilmiy izlanishlarga kengroq jalb etish imkoniyatlari nazarda tutilgan. Umuman olganda, professor-o‘qituvchilar tarkibining malakaviy darajasi, kadrlar salohiyatini rivojlantirish mexanizmlari va ilmiy faoliyatni qo‘llab-quvvatlash tizimi belgilangan talablar hamda ta’lim sifatini ta’minlash mezonlariga muvofiq deb baholandi.

6-bob. Moddiy-texnik ta’minot yo‘nalishi

Ta’lim dasturini sifatli amalga oshirish, o‘quv jarayonini samarali tashkil etish va magistrantlarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlash uchun zarur bo‘lgan moddiy-texnik infratuzilma hamda axborot-resurs bazasi shakllantirilgan. Universitetda zamonaviy o‘quv auditoriyalari, kompyuter sinflari, Axborot-resurs markazi, elektron kutubxona, LMS va HEMIS axborot tizimlari hamda internet tarmog‘idan foydalanish imkoniyatlari yaratilgan. Mavjud infratuzilma orqali nazariy va amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish, mustaqil ta’lim jarayonlarini qo‘llab-quvvatlash hamda elektron ta’lim resurslaridan samarali foydalanish uchun tegishli sharoitlar ta’minlangan. Raqamli ta’lim muhitining shakllantirilishi, masofaviy ta’lim imkoniyatlarining mavjudligi va axborot xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan choralar o‘quv jarayonining uzluksizligi, ochiqligi va samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan. O‘quv-metodik adabiyotlar, elektron axborot manbalari va ilmiy resurslardan foydalanish imkoniyatlari magistrantlarning nazariy bilimlarini mustahkamlash, mustaqil izlanishlar olib borish hamda ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish ehtiyojlariga mos ravishda tashkil etilgan. Matematik modellashtirish, algoritmlash va ma’lumotlar tahlili yo‘nalishlarida amaliy masalalarni yechish uchun hisoblash resurslari hamda ixtisoslashtirilgan matematik dasturiy ta’minotdan foydalanish imkoniyatlari ta’lim jarayonining muhim tarkibiy qismi sifatida nazarda tutilgan. Moddiy-texnik vositalar va raqamli resurslardan foydalanish orqali magistrantlarning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish, murakkab matematik hisoblashlarni bajarish va ilmiy natijalarni tahlil qilish uchun zarur sharoitlar yaratilgan. Umuman olganda, mavjud moddiy-texnik baza, axborot-resurs ta’minoti va raqamli ta’lim infratuzilmasi ta’lim dasturining maqsadlariga erishish hamda belgilangan sifat talablarini bajarish uchun yetarli deb baholandi.

6. BAHOLASH YO‘NALISHLARI (BOB) BO‘YICHA ANIQLANGAN KAMCHILIKLAR VA NOMUVOFIQLIKLAR

Jiddiy kamchiliklar (akkreditatsiyaga to‘sqinlik qiluvchi):

Ta’lim dasturini yo‘lga qo‘yish uchun to‘sqinlik qiladigan jiddiy kamchiliklar aniqlanmadi

Bartaraf etilishi lozim bo‘lgan juz’iy kamchiliklar:

- ✓Magistrlik tadqiqotlarida xalqaro ilmiy bazalar va zamonaviy xorijiy manbalardan foydalanish ulushini oshirish zarurati mavjud.
- ✓Xorijiy mutaxassislarni dars jarayoniga jalb etish va xalqaro qo‘shma tadqiqot loyihalarini kengaytirish bo‘yicha ishlar davom ettirilishi lozim.
- ✓Monitoring natijalarining dasturni takomillashtirishga ta’sirini hujjatlashtirish tizimini kuchaytirish kerak.

7. TA’LIM DASTURINI SIFATLI TASHKIL ETISH BO‘YICHA TAVSIYALAR

- ✓Magistrantlarning xalqaro ilmiy bazalardan foydalanishini kengaytirish va tadqiqot natijalarini xalqaro jurnallarda chop etishni rag‘batlantirish.
- ✓Xorijiy professorlar bilan qo‘shma ma’ruzalar va tadqiqot loyihalarini rivojlantirish.
- ✓Ixtisoslashtirilgan matematik dasturiy paketlar va hisoblash resurslarini bosqichma-bosqich kengaytirish.
- ✓Monitoring natijalari asosida kiritilgan o‘zgartirishlarni bayonnomalar bilan hujjatlashtirish.

8. TA’LIM DASTURI BO‘YICHA YAKUNIY XULOSA

Baholash natijalariga ko‘ra, 70540201 – “Amaliy matematika” magistratura ta’lim dasturi bo‘yicha taqdim etilgan hujjatlar, o‘quv-uslubiy materiallar, tashkiliy-boshqaruv mexanizmlari, professor-o‘qituvchilar salohiyati hamda moddiy-texnik va axborot-resurs bazasi kompleks tahlil qilindi. O‘rganish natijasida ta’lim dasturini boshqarish va sifatini nazorat qilish mexanizmlari shakllantirilgani, dastur mazmuni raqamli iqtisodiyot, matematik modellashtirish, algoritmlash va ma’lumotlar tahlili sohalarining zamonaviy ehtiyojlariga mos ishlab chiqilgani hamda o‘quv jarayoni kutilayotgan ta’lim natijalari va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan holda tashkil etilgani aniqlandi. Magistrantlarning bilim va ko‘nikmalarini baholashda shaffoflik va xolislik tamoyillari ta’minlangan, ularni akademik, ilmiy va kasbiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari yo‘lga qo‘yilgan. Shuningdek, ta’lim dasturini amalga oshirish uchun zarur ilmiy-pedagogik salohiyat shakllantirilgan, professor-o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishi va ilmiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlash tizimi mavjud hamda o‘quv va ilmiy-tadqiqot jarayonlari tegishli moddiy-texnik, raqamli va axborot resurslari bilan ta’minlangan. Kompleks baholash yakunlariga ko‘ra, oltita yo‘nalish doirasida ko‘rib chiqilgan 27 ta mezonning barchasi akkreditatsiya talablariga muvofiq deb topildi. Bildirilgan tavsiyalar dasturni amalga oshirishga to‘sqinlik qilmaydigan, uning mazmuni, ta’lim sifati va mavjud resurslardan foydalanish samaradorligini yanada oshirishga qaratilgan

rivojlantiruvchi xarakterga ega. Umuman olganda, ta’lim dasturining tashkiliy, akademik, ilmiy va resurs jihatidan ta’minlanganligi, belgilangan maqsadlarga erishish uchun zarur sharoitlarning mavjudligi hamda barcha baholash mezonlari bo‘yicha ijobiy natijalar qayd etilgani inobatga olinib, ta’lim dasturi akkreditatsiya talablariga MUVOFIQ deb baholandi.

9. TA’LIM DASTURI BO‘YICHA AKKREDITATSIYA KOMISSIYASI QARORI

Akkreditatsiya komissiyasi qarori sanasi:	03.08.2026
Akkreditatsiya komissiyasi bayon soni:	6-son
Yakuniy qaror:	**AKKREDITATSIYADAN O‘TDI**

Guvohnoma (MAS № 0000485) haqiqiyligini NQAAE davlat akkreditatsiyasi reyestrida tekshirish uchun QR kod

NATIONAL QUALITY ASSURANCE AGENCY FOR EDUCATION

NQAAE

UNDER THE ADMINISTRATION OF THE PRESIDENT OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

+998 55 505 30 30

info@nqaae.uz
www.nqaae.uz

@nqaaeuz

@nqaaeuzbot